

XII. DEMOGRAFIYA

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning 1 iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 982,4 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 34,7 ming kishiga yoki 0,9 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni, ming kishi

(2021 yil 1 iyul holatiga)

	Jami aholi soni	shu jumladan:		jami aholi sonidan:	
		erkaklar	ayollar	shahar aholisi	qishloq aholisi
Viloyat bo'yicha	3982,4	2003,6	1978,9	1469,8	2512,6
Samarqand sh.	557,2	269,8	287,3	557,2	0,0
Kattaqo'rg'on sh.	91,2	45,6	45,6	91,2	0,0
<i>tumanlar:</i>					
Oqdaryo	163,0	82,3	80,7	63,5	99,9
Bulung'ur	191,0	97,4	93,6	42,6	148,6
Jomboy	177,9	89,7	88,2	39,6	138,3
Ishtixon	260,6	131,2	129,4	70,8	189,6
Kattaqo'rg'on	279,0	141,6	137,4	53,1	225,7
Qo'shrabot	134,6	68,6	65,9	12,6	122,2
Payariq	256,7	132,9	123,9	74,0	183,0
Pastdarg'om	362,8	182,2	180,6	94,1	268,9
Paxtachi	146,9	73,0	73,9	28,7	118,4
Samarqand	258,5	130,7	127,8	16,0	242,4
Narpay	217,0	110,2	106,7	64,8	152,1
Nurobod	154,1	77,7	76,5	17,6	136,5
Toyloq	207,3	104,6	102,8	25,3	182,0
Urgut	524,7	266,2	258,5	218,9	304,9

Aholining tabiiy harakati


(yanvar-iyun oylarida)

	kishi			har ming aholiga, nisbatan	
	2020 y.	2021 y. ¹⁾	o'sish, kamayish	2020 y.	2021 y. ¹⁾
Tug'ilganlar	44 472	47 394	2 922	23,0	24,1
O'lim	7 735	8 551	816	4,0	4,3
Nikohlar	7 149	13 316	6 167	3,7	6,8
Ajralishlar	1 302	2 041	739	0,7	1,0

Tug'ilish. 2021 yilning yanvar-iyun oylarida 47 394 bola tug'ilgan va 2020 yilning shu davriga (44 472 bola tug'ilgan) nisbatan 2922 taga ko'paydi, tug'ilish koeffitsienti esa 24,1 promilleni tashkil qildi (2020 yil yanvar-iyunida 23,0 promille).

Tug'ilish koeffitsientining sezilarli darajada o'sishi Nurobod (21,6 dan 25,1 promillega), Bulung'ur (22,0 dan 23,4 promillega), Payariq (25,5 dan 27,6 promillega), Urgut (26,0 dan 27,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti



Vafot etish darajasi. 2021 yilning yanvar-iyun oylarida vafot etganlar soni 8 551 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (7 735 kishi) nisbatan 816 taga ko'paydi. O'lim koeffitsienti esa 4,3 promilleni tashkil qildi (2020 yilning shu davrida 4,0 promille).

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2021 yil yanvar-iyun)




Vafot etganlar sonining ko'payishi Samarqand shahrida (4,5 dan 4,8 promillega), Bulung'ur (3,6 dan 4,1 promillega), Pastdarg'om (3,7 dan 3,9 promillega) va Samarqand (4,7 dan 5,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ro'yxatga olingan jami vafot etganlar 63,2 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklari, 7,9 foizi - o'sma kasalliklari, 4,9 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar, 5,0 foizi - ovqat hazm qilish organlari kasalliklari, 6,0 foizi - nafas olish organlari kasalliklari, 0,8 foizi - infeksiya kasalliklari va qolgan 12,2 foizi esa boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi sababli vafot etgan.

Vafot etganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi, % da

(2021 yil yanvar-iyun)




Nikoh. 2021 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 13 316 kishi nikohi qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,8 promilleni tashkil etdi.

Nikoh tuzish koeffitsientining sezilarli darajada kamayishi Oqdaryo (5,0 dan 7,1 promillega), Bulung'ur (6,2 dan 8,2 promillega), Jomboy (7,0 dan 8,6 promillega), Ishtixon (5,8 dan 6,5 promillega), Payariq (7,5 dan 8,7 promillega), Toyloq (5,4 dan 7,2 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti


(2021 yil yanvar-iyun)




Nikohdan ajralishlar. 2021 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlarida 921 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Nikohdan ajralish koeffitsientining sezilarli darajada ko'payish Samarqand (1,2 dan 1,7 promillega) va Kattaqo'rg'on shaharlarida (1,2 dan 1,5 promillega), Bulung'ur (0,7 dan 0,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (2021 yil yanvar-iyun)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5 735 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 9 857 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus -4 122 kishi (2020 yilning shu davrida minus -4 805 kishi)ga teng bo'ldi.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari, kishi

(yanvar-iyun oylarida)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya sal'dosi	
	2020 y.	2021 y.	2020 y.	2021 y.	2020 y.	2021 y.
Viloyat bo'yicha	2 255	5 735	7 060	9 857	-4 805	-4 122
Samarqand sh.	495	3 349	985	1 300	-490	2 049
Kattaqo'rg'on sh.	146	309	272	416	-126	-107
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	67	102	268	448	-201	-346
Bulung'ur	154	208	444	604	-290	-396
Jomboy	158	205	181	282	-23	-77
Ishtixon	92	288	530	820	-483	-532
Kattaqo'rg'on	101	244	798	761	-697	-517
Qo'shrabot	64	128	378	743	-314	-615
Payariq	84	113	587	939	-503	-826
Pastdarg'om	71	108	368	611	-297	-503
Paxtachi	164	4	498	584	-334	-580
Samarqand	308	226	334	485	-26	-259
Narpay	157	125	534	483	-377	-358
Nurobod	14	130	268	354	-254	-224
Toyloq	111	180	143	214	-32	-34
Urgut	69	16	481	813	-412	-797